

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE'S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra‘noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annayev Abdurasul Abdurashidovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi

va audit kafedrası assistenti

E-mail: 00_bek94@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu ilmiy ishda madaniyat sohasi muassasalarini auditdan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, teatr kabi madaniy muassasalar faoliyatining moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy jihatları kompleks ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda audit jarayonida uchraydigan asosiy muammolar aniqlanib, ularni hal etish yo'llari va takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, madaniyat muassasalarida audit samaradorligini oshirish uchun maxsus yondashuvlar, baholash mezonlari va differensial metodikaga ehtiyoj mavjudligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat sohasi, audit xususiyatlari, teatr muassasasi, moliyaviy nazorat, ijtimoiy samaradorlik, mualliflik huquqi, asosiy vositalar, byudjet mablag'lari, differensial yondashuv, audit metodikasi.

Аннотация

В данной научной работе анализируются особенности аудита учреждений культуры. В частности, комплексно рассматриваются финансовые, правовые и социальные аспекты деятельности учреждений культуры, таких как театры. В исследовании выявляются основные проблемы, возникающие в процессе аудита, разрабатываются практические предложения по их решению и совершенствованию. Также обосновывается необходимость специальных подходов, критериев оценки и дифференцированной методики для повышения эффективности аудита учреждений культуры.

Ключевые слова: сфера культуры, особенности аудита, театральное учреждение, финансовый контроль, социальная эффективность, авторское право, основные средства, бюджетные средства, дифференцированный подход, методика аудита.

Abstract

This scientific work analyzes the specific features of auditing cultural institutions. In particular, the financial, legal and social aspects of the activities of cultural institutions such as theaters are comprehensively considered. The study identifies the main problems encountered in the audit process, develops practical proposals for their solution and improvement. It also substantiates the need for special approaches, assessment criteria and differential methodology to increase the efficiency of audits in cultural institutions.

Keywords: cultural sphere, audit features, theater institution, financial control, social efficiency, copyright, fixed assets, budget funds, differential approach, audit methodology.

KIRISH

Kishilik jamiyatining ravnaqida madaniyat sohasining oʻrni beqiyosdir. Ushbu soha, maʼlumki, odamlarning maʼnaviy talablarini qondiradi, ular ongi, bilimi, dunyo qarashi va madaniyatini yuksalishiga xizmat qiladi. Respublikamizda mustaqillik yillarida milliy madaniyat sohasini shakllantirish va rivojlantirish borasida diqqatga molik ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, oxirgi 3 yilda respublikamizda madaniyat sohasini tubdan isloh qilish, ushbu sohaga kiruvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan koʻplab meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularning asosiylari boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida” PQ-3022-sonli Qarori bilan Oʻzbekiston Respublikasida madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish boʻyicha 2017-2021 yillarga moʻljallangan chora-tadbirlar dasturi va uning kelajakdagi imkoniyatlari ham mavzuning hukumat darajasida dolzarb ekanligidan dalolat beradi [1].

Madaniyat sohasi muassasalarini auditdan oʻtkazish umumiy audit tamoyillariga asoslansa-da, bu sohaning oʻziga xos faoliyat yoʻnalishlari, moliyaviy manbalarining xilma-xilligi va ijtimoiy-maʼnaviy vazifalari hisobga olingan holda yondashuv talab etadi. Ushbu muassasalar byudjet tashkilotlari sifatida koʻpincha davlat tomonidan moliyalashtiriladi, ularning daromadlari esa notijorat xarakterga ega boʻlishi mumkin. Shu sababli audit jarayonida nafaqat moliyaviy hisobotlarning toʻgʻriligini, balki byudjet mablagʻlarining maqsadli ishlatilganligi, qonuniyligi va samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniyat sohasi muassasalarida audit oʻtkazishning umumiy xususiyatlari, oʻziga xos jihatlari va imkoniyatlari haqida koʻplab olimlar oʻzlarining ishlarida bayon etganlar. Jumladan, G.P.Frolova oʻzining tadqiqotlarida madaniyat sohasida ichki audit tizimining oʻziga xos jihatlari va xususiyatlari, ichki audit tizimini rivojlantirish masalalariga eʼtibor qaratgan. Bundan asosiy maqsad korxona va tashkilotlar holatini oʻrganish orqali muammoli jarayonlarga jiddiy eʼtibor qaratish lozimligi haqida ilmiy izlanishlarni ilgari suradi [2].

Mahalliy olimlarimizdan A.J.Tuychiyev, O.T.Astanakulovlar ham izlanishlarida ham xizmat koʻrsatish sohalarida auditning xususiyatlari toʻgʻrisida fikrlarni ilgari suradi [3]. Moliyaviy axborotning ishonchliligini tasdiqlash uchun auditor xizmatlar sohasi buxgalteriya hisobining oʻziga xos operatsiyalarini tartibga soluvchi qonunchilik boʻyicha maxsus bilimlarga ega boʻlishi lozimligi haqida aytadilar.

Xoʻjalik operatsiyalarini va buxgalteriya hisobi raqamlari saldosi tekshirish uchun obyektlar boʻyicha (audit segmentlari buxgalteriya hisobi obyektlari bilan mos keladi) va siklik (audit segmenti xoʻjalik operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan hisob obyektlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar, yaʼni xoʻjalik operatsiyalari sikli) yondashuvlarni qoʻllashi mumkin.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi obyektivlik, izchillik, tizimlilik, tahliliy fikrlash va dalillarga asoslangan yondashuv tamoyillariga tayangan holda olib boriladi. Shu asosda tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan foydali tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniyat muassasalarida auditorlar quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishlari lozim:

Moliyalashtirish manbalari – davlat byudjeti, grantlar, homiylik mablag'lari va o'z faoliyatidan tushgan daromadlarning hisobini yuritish va ularning qonuniyligi.

Moliyaviy hujjatlarning yuritilishi – xarajat smetalari, hisobotlar, xo'jalik shartnomalari va boshqa moliyaviy hujjatlarning to'g'ri yuritilishi.

Moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligi – ajratilgan mablag'lar hisobiga erishilgan natijalar, ijtimoiy-ma'naviy ta'sir va auditorlik ko'rsatkichlari tahlili.

Asosiy vositalardan foydalanish – binolar, asbob-uskunalar, san'at asarlari, kutubxona fondlari va boshqa moddiy aktivlarning inventarizatsiyasi va ularni saqlash qoidalariga rioya etilishi.

Ijodiy va ilmiy loyihalarning moliyaviy bahosi – spektakllar, ko'rgazmalar, konsertlar kabi tadbirlar uchun ajratilgan mablag'larning rejalashtirilgan va amalda sarflangan ko'rinishlarini taqqoslash.

Madaniyat muassasalarida faoliyat ko'lami turlicha bo'lishi mumkinligi sababli audit jarayonlari differensial yondashuvga asoslanadi. Muzey, teatr, kutubxona, san'at maktabi kabi muassasalarning har bir turi uchun alohida audit metodikasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, madaniyat sohasidagi audit nafaqat moliyaviy tartibni ta'minlashga, balki jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni oshirishga, shuningdek, ushbu muassasalarning strategik rivojlanishini ta'minlovchi moliyaviy boshqaruv tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Joriy yilda byudjet mablag'lari hisobidan 22 ta teatr va madaniyat obyektlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikligi asosida 20 ta madaniyat markazi va istirohat bog'lari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Kinematografiya sohasida badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratish, zamonaviy kinoindustriyani rivojlantirish, jumladan, yangi kinoteatrlar qurishni ta'minlash lozim.

Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari tomonidan jalb qilingan homiylik mablag'lari byudjet mablag'larini kamaytirishga asos bo'lmaydi.

Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari har yili 31 dekabrga qadar kelgusi yil faoliyatining asosiy prognoz ko'rsatkichlari (spektakllar soni, yangi sahnalashtirilgan spektakllar soni, kutilayotgan tomoshabinlar soni, gastrol safarlari soni va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda aniqlaydilar.

Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari har yili xarajatlar smetasini tuzish va ro'yxatga olish jarayonida daromadlar va xarajatlar prognozini shakllantiradilar.

1-jadval

Davlat teatr muassasasini auditdan o'tkazishning xususiyatlari¹

Audit yo'nalishi	O'ziga xoslik	Izoh (Davlat teatri misolida)
Moliyaviy manbalarni tekshirish	Turli manbalar: byudjet, homiylik, grant, chiptalardan tushum	Teatr faoliyati davlat tomonidan moliyalashtiriladi, ammo chipta savdosi va grantlar ham mavjud
Xarajatlar smetasi	Sarf-xarajatlar badiiy loyihalar asosida shakllanadi	Spektakl yoki sahna asari uchun kostyum, dekoratsiya, texnika xarajatlari hisoblanadi
Asosiy vositalar auditi	Unikal san'at asarlari, sahna jihozlari va binolar inventarizatsiyasi zarur	Qimmatli rekvizitlar, tarixiy buyumlar va dekoratsiyalar mavjud
Mehnat haqi va shartnomalar	Ijodiy xodimlar uchun vaqtinchalik, loyiha asosidagi shartnomalar bo'lishi mumkin	Aktyorlar, rejissyorlar, dekoratorlar va boshqalar vaqtinchalik yoki loyihaviy asosda ishlaydi
Huquqiy hujjatlar tahlili	Mualliflik huquqlari, litsenziyalar, ijro huquqlari muhim	Sahna asarlari ko'chirilmasligi uchun muallif bilan shartnoma tekshiriladi
Ijtimoiy ta'sir samaradorligi	Moliyaviy emas, balki ijtimoiy-madaniy samaradorlikni ham hisobga olish zarur	Auditor spektakl ta'siri, auditoriya soni va ijtimoiy foyda ko'rsatkichlarini tahlil qiladi
Risklarni aniqlash	Ko'proq obro', ishtirokchi soni, moliyalashtirish kechikishi bilan bog'liq risklar	Auditor bu risklarning moliyaviy oqibatlariga tayyorlikni baholaydi

Davlat teatr muassasasi misolida madaniyat sohasi muassasalarini auditdan o'tkazish o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Ushbu muassasalarning moliyaviy manbalari turli ko'rinishda bo'lib, davlat byudjeti bilan bir qatorda homiylik, grantlar va chiptalardan tushgan tushumlar ham mavjud. Auditda xarajatlarning smeta asosida shakllanishi, ayniqsa spektakllar va badiiy loyihalarga xos xarajatlarning to'g'ri rejalashtirilgani muhim ahamiyatga ega.

Teatrda asosiy vositalar tarkibiga noyob san'at buyumlari, dekoratsiyalar, sahna jihozlari va tarixiy ahamiyatga ega elementlar kiradi, shuning uchun inventarizatsiya va ularni hisobga olish alohida e'tibor talab qiladi. Auditorlar shuningdek, ijodiy xodimlar bilan tuzilgan vaqtinchalik yoki loyiha asosidagi shartnomalarni tahlil qiladi.

Mualliflik huquqlari va ijro litsenziyalari borasidagi qonuniy hujjatlarning mavjudligi va to'g'riligini baholash ham auditning muhim jihatlaridan biridir. Teatr faoliyatining ijtimoiy-madaniy ta'siri yuqori bo'lganligi sababli, audit jarayonida faqat moliyaviy natijalar emas, balki ijtimoiy samaradorlik (tomoshabinlar soni, auditoriya qamrovi, ta'sir darajasi) ham hisobga olinadi. Risklar esa ko'proq obro', moliyaviy kechikishlar yoki auditoriya ishtirokiga bog'liq bo'lib, auditorlar bu xavflarni baholab, ularni boshqarish choralari ko'rib chiqadi.

Shunday qilib, madaniyat muassasalarini auditdan o'tkazishda standart moliyaviy audit usullaridan tashqari, ijodiy, huquqiy va ijtimoiy omillar ham inobatga olinishi zarur bo'ladi.

Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalarga o'z daromadlari bilan qoplanmagan xarajatlarning qismi uchun ajratilgan byudjet mablag'lari bo'yicha

¹ Muallif ishlanmasi

xarajatlar smetasida, birinchi navbatda, shtat jadvaliga asosan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda yagona ijtimoiy to'lovlar xarajatlari nazarda tutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Madaniyat sohasi muassasalarini auditdan o'tkazish umumiy audit tamoyillaridan farqli ravishda bir qator o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, ushbu muassasalar faoliyatining notijorat va ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishda tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Davlat teatr, muzey, kutubxona yoki san'at maktablari kabi madaniyat muassasalarida audit faqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanmay, balki byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi, asosiy vositalardan foydalanish, mualliflik huquqlari, ijodiy loyihalarning natijadorligi va ijtimoiy samaradorlik darajasini ham baholashni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniyat muassasalarini auditdan o'tkazishda differensial va tizimli yondashuv muhim bo'lib, auditorlar ijodiy va ma'naviy omillarni inobatga olgan holda chuqur tahlil yuritishlari lozim. Ushbu yondashuv nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki davlat mablag'laridan foydalanishning shaffofligini ta'minlash va madaniy soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, madaniyat muassasalarida audit faoliyatini takomillashtirish, maxsus metodika va mezonlarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Madaniyat muassasalariga xos audit metodikasini ishlab chiqish. Har bir turdagi madaniyat muassasasi (teatr, muzey, kutubxona, san'at maktabi va boshqalar) uchun alohida audit mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish zarur. Bu auditorlarga mazkur muassasa faoliyatini chuqur va adolatli baholash imkonini beradi.

- Ijtimoiy samaradorlikni baholash tizimini joriy etish. Faqat moliyaviy natijalar emas, balki madaniy ta'sir, auditoriya qamrovi, ijtimoiy loyihalardagi ishtirok kabi ko'rsatkichlarni ham audit tizimiga kiritish kerak.

- Auditorlar malakasini oshirish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish. Madaniyat sohasi xususiyatlarini tushunadigan auditorlar tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlari va seminarlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

- Asosiy vositalarni raqamli inventarizatsiya qilish. Madaniyat muassasalarida mavjud noyob asarlar, uskunalar va rekvizitlarning holatini doimiy nazorat qilish uchun raqamlashtirish va inventarizatsiya tizimini joriy etish lozim.

- Mualliflik huquqlariga oid audit nazoratini kuchaytirish. IJT (intellektual mulk) obyektlaridan foydalanganlik uchun shartnomaviy va litsenzion asoslar qat'iy nazorat qilinishi kerak.

- Davlat va nodavlat auditorlik tuzilmalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish. Mustaqil audit tashkilotlari va davlat auditorlari o'rtasida tajriba almashinuvi orqali sifatli va obyektiv audit tizimi yaratiladi.

- Audit natijalarini jamoatchilikka ochiq e'lon qilish. Ommaviy axborot vositalarida yoki rasmiy veb-saytlar orqali audit hisobotlari bilan tanishtirish, shaffoflik va jamoatchilik ishonchini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-may PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori <https://lex.uz/docs/-4113465>.

2. Фролова Галина Петровна ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА АВТОНОМНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ // Каспийский регион: политика, экономика, культура. 2014. №2 (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-sistemy-vnutrennego-audita-avtonomnogo-uchrezhdeniya-sfery-kultury>

3. Tuychiev A.J., Astanakulov O.T. Xizmat ko'rsatish sohasida auditning xususiyatlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016 yil, 186 bet.

4. Shukurov Fayzulla Bobonovich, Rashidov Farrux Budget tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy xamda amaliy jihatlari // ReFocus. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/budget-tashkilotlarida-ichki-audit-faoliyatining-nazariy-xamda-amaliy-jihatlar>

5. Степашин С. В. Государственный аудит: введение в специальность. Вступительная лекция / С. В. Степашин. — 07.09.2010 г. — Режим доступа: http://www.nisse.ru/work/projects/reports/reports_249.html , свободный. — Заглавие с экрана. -Яз.рус.

Кабашкин В. А. Повышение роли внутреннего аудита и контроля в условиях рыночной экономики / В. А. Кабашкин, В. А. Мышов // Международный бухгалтерский учет. -2011. — № 13. — С. 36-46.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**